O‘QUVCHILARNING O‘ZLIGINI ANGLASH VA O‘Z-O‘ZINI TARBIYALASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN RAQAMLI KONTENTLARNI ISHLAB CHIQISH VA JORIY ETISH MEXANIZMLARI

Fayzullayev Farrux Maxsud o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagiTarbiya pedagogikasi milliy instituti
tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23521733

Annotatsiya.*Maqolada o‘quvchilarning o‘zligini anglashi va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini tashkil etishda raqamli kontentlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. O‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘zini diagnostika qilish, maqsad qo‘yish, rejalashtirish, amaliy faoliyat, monitoring, refleksiya va korreksiyadan iborat siklik mexanizmi tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik shakl, metod va vositalarning o‘zaro integratsiyasi, elektron portfolio, refleksiv kundalik, raqamli rivojlanish xaritasi hamda mezonli qayta aloqadan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Raqamli kontentlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, psixologik xavfsizlik va mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati asoslangan.*
Kalit so‘zlar: *o‘zlikni anglash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, raqamli kontent, pedagogik mexanizm, refleksiya, elektron portfolio, raqamli monitoring, o‘zini boshqarish.*
Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические возможности использования цифрового контента в организации деятельности учащихся по осознанию собственной личности и самовоспитанию. Анализируется циклический механизм самовоспитания, включающий самодиагностику, постановку целей, планирование, практическую деятельность, мониторинг, рефлексию и коррекцию. Особое внимание уделяется интеграции педагогических форм, методов и средств, использованию электронного портфолио, рефлексивного дневника и цифровой карты личностного развития. Обосновывается необходимость соблюдения возрастных и индивидуальных особенностей учащихся, защиты персональных данных и обеспечения психологической безопасности при внедрении цифрового контента в образовательный процесс.*
Ключевые слова: *самосознание, самовоспитание, цифровой контент, педагогический механизм, рефлексия, электронное портфолио, цифровой мониторинг, саморегуляция.*
Abstract.*The article explores the pedagogical potential of digital content in supporting pupils’ self-awareness and self-education. It examines the cyclical mechanism of self-education, including self-diagnosis, goal setting, planning, practical action, monitoring, reflection, and correction. Particular attention is paid to the integration of pedagogical forms, methods, and tools, as well as the use of electronic portfolios, reflective journals, and digital personal development maps. The article also highlights the importance of adapting digital content to pupils’ age and individual characteristics, protecting personal data, ensuring psychological safety, and fostering independent self-regulation.*
Keywords: *self-awareness, self-education, digital content, pedagogical mechanism, reflection, electronic portfolio, digital monitoring, self-regulation.*

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni rivojlantirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mas’uliyatli qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini ongli boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan

hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi, raqamli muhitning o‘quvchilar hayotiga faol kirib kelishi tarbiyaviy jarayonni tashkil etish usullarini ham takomillashtirishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan raqamli kontentlarni ishlab chiqish va ularni ta’lim amaliyotiga samarali joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli kontentlardan foydalanishning pedagogik qiymati faqat axborotni elektron shaklda taqdim etish bilan belgilanmaydi. Uning asosiy vazifasi o‘quvchiga o‘z imkoniyatlari va ehtiyojlarini anglash, shaxsiy maqsadlarini belgilash, xatti-harakatlarini kuzatish hamda erishilgan natijalarni tahlil qilish imkoniyatini yaratishdan iborat. Bunday yondashuv raqamli vositalarni tarbiyaviy faoliyatning maqsadi emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik resurs sifatida ko‘rishni taqozo etadi. O‘zlikni anglash va o‘z-o‘zini tarbiyalashning pedagogik mexanizmi

O‘zlikni anglash o‘quvchining o‘z «Men»i, qobiliyatlari, ehtiyojlari, qadriyatlari, xulq motivlari va istiqboldagi maqsadlari haqida yaxlit tasavvur hosil qilish jarayonidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash esa shaxsning ijobiy sifatlarini rivojlantirish, salbiy odatlarini cheklash va rejalashtirilgan shaxsiy o‘zgarishlarga erishish maqsadida amalga oshiradigan ongli, muntazam va refleksiv faoliyatini anglatadi. Ushbu jarayonlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘zini anglash shaxsiy rivojlanish ehtiyojini aniqlashga, o‘z-o‘zini tarbiyalash esa anglangan ehtiyojni amaliy xatti-harakatga aylantirishga xizmat qiladi.

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi shaxs xulqi, ichki omillar va muhitning o‘zaro ta’sirini tushuntiradi. B. Zimmerman tomonidan asoslangan o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish yondashuvi esa maqsadni belgilash, faoliyatni amalga oshirish va refleksiya bosqichlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Mazkur qarashlarni tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini bir martalik tadbir emas, balki muntazam ravishda takrorlanadigan va natijalar asosida takomillashtiriladigan jarayon sifatida tashkil etish zarurligini anglatadi. O‘quvchilarning o‘zligini anglashi va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini tashkil etishning siklik mexanizmi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: o‘zini diagnostika qilish, shaxsiy maqsad qo‘yish, harakat rejasini tuzish, amaliy faoliyat va o‘zini nazorat qilish, refleksiya va o‘zini baholash, korreksiya. Dastlab o‘quvchi o‘zining kuchli tomonlari, qiyinchiliklari, odatlari va rivojlanish ehtiyojlarini aniqlaydi. Keyin aniq va erishish mumkin bo‘lgan maqsadni belgilab, unga erishish yo‘llarini rejalashtiradi. Faoliyat davomida o‘z xatti-harakatlarini kuzatadi, yakunda natijalarni tahlil qiladi va zarur hollarda maqsad yoki strategiyasiga tuzatish kiritadi. Mazkur mexanizmda refleksiya alohida o‘rin tutadi. Chunki o‘quvchi sodir bo‘lgan voqeani shunchaki eslab qolish bilan cheklanmasdan, uning sabablarini, o‘z hissiyotlari va qarorlarining ta’sirini anglaydi. Natijada olingan tajriba keyingi faoliyatni tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli kontentlarni pedagogik faoliyatga integratsiyalash

O‘quvchilarning o‘zligini anglash va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini samarali tashkil etishda pedagogik shakl, metod va vositalarning funksional bog‘liqligi muhim hisoblanadi. Pedagogik shakl faoliyatning tashkiliy ko‘rinishini, metod belgilangan maqsadga erishish yo‘lini, vosita esa ushbu metodni amalga oshirishga xizmat qiluvchi moddiy, axborotiy yoki raqamli resursni ifodalaydi. Shuning uchun raqamli kontentni tanlashda uning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra, qanday pedagogik vazifani bajarishi va o‘quvchining qaysi ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qilishiga e’tibor qaratish zarur. O‘zlikni anglash va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini individual, juftlik, kichik guruh, jamoaviy, sinfdan tashqari, oila bilan hamkorlik hamda raqamli shakllarda tashkil etish mumkin. Individual shaklda o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari, maqsadlari va rivojlanish dinamikasi bilan ishlash imkoniyati yaratiladi. Juftlik va guruh shakllari o‘zaro fikr almashish, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslash va hamkorlikda qaror qabul qilishga yordam beradi. Sinfdan tashqari faoliyat esa o‘quvchiga o‘z sifatlarini real hayotiy vaziyatlarda sinab ko‘rish imkonini beradi. Raqamli shakllardan foydalanish mazkur faoliyatni muntazam tashkil etish va qayd etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, elektron portfolio o‘quvchining maqsadlari, bajarilgan ishlari, kuzatuv natijalari va refleksiv xulosalarini jamlashga xizmat qiladi. Raqamli rivojlanish xaritasi belgilangan maqsadlar bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlarni kuzatishga, elektron kalendar va eslatmalar esa rejalashtirilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishga ko‘maklashadi. Audio-refleksiya o‘z fikrlari va kechinmalarini yozma shaklda ifodalashda qiynaladigan o‘quvchilar uchun muqobil imkoniyat yaratishi mumkin. Raqamli kontentlarni ishlab chiqishda o‘zini diagnostika qilish, maqsad qo‘yish, o‘zini kuzatish, refleksiv suhbat, axloqiy dilemma va keys tahlili, loyiha, portfolio hamda tengdoshlarning qayta aloqasi kabi metodlardan foydalanish mumkin. Ushbu metodlarning har biri o‘ziga xos pedagogik vazifani bajaradi. Masalan, o‘zini diagnostika qilish o‘quvchining boshlang‘ich holatini aniqlashga, maqsad qo‘yish rivojlanish yo‘nalishini belgilashga, refleksiv suhbat esa tajriba sabablarini tahlil qilishga yordam beradi. Raqamli vositalar ushbu metodlarning amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Refleksiv kundalikda o‘quvchi muayyan vaziyat, unda yuzaga kelgan hissiyot, amalga oshirilgan harakat va erishilgan natijani qayd etishi mumkin. Chek-list va odatlar trekeri kundalik faoliyatning muntazamligini kuzatishga yordam beradi. Biroq ularni faqat belgi qo‘yish yoki topshiriqni bajarilgan deb qayd etish bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. Har bir qayddan keyin qisqa tahlil va keyingi qadamni belgilash o‘quvchining refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli kontentlarni joriy etishning pedagogik shartlari:

Raqamli kontentlardan foydalanishning samaradorligi ularning mavjudligi bilan emas, balki pedagogik maqsadga muvofiq tashkil etilishi bilan belgilanadi.

Birinchi navbatda, kontent o‘quvchining yoshi, individual xususiyatlari, ehtiyojlari va mustaqillik darajasiga mos bo‘lishi lozim. Topshiriqlarning murakkabligi bosqichma-bosqich oshirilib, o‘quvchiga o‘z maqsadini tanlash va faoliyat usulini belgilash imkoniyati berilishi zarur.

Ikkinchi muhim shart-psixologik xavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishdir. O‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida o‘quvchi o‘z xatolari, hissiyotlari va qiyinchiliklari haqida qaydlar yuritishi mumkin. Bunday ma’lumotlar o‘quvchining roziligisiz ommaga taqdim etilmasligi, boshqa o‘quvchilar bilan reyting yoki taqqoslash vositasiga aylantirilmasligi kerak. Elektron portfolio va raqamli kundalikning tarbiyaviy qiymati o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini ko‘rsatishidadir, uni boshqalar bilan musobaqalashtirishda emas.

Uchinchi shart - shakl, metod va vositalarning integratsiyasidir. Raqamli platforma yoki mobil ilovaning o‘zi tarbiyaviy metod o‘rnini bosa olmaydi. Masalan, individual shaklda refleksiv kundalik orqali o‘zini kuzatish metodi, kichik guruhda raqamli keys yordamida axloqiy dilemma tahlili, oila bilan hamkorlikda esa haftalik reja asosida monitoring tashkil etilishi mumkin. Bunda raqamli vosita pedagogik maqsadga xizmat qilishi, o‘quvchining mustaqil fikrlashi va qaror qabul qilishini cheklamasligi lozim.

To‘rtinchi shart - muntazamlik va qayta aloqani ta’minlash. Bir martalik raqamli mashg‘ulot o‘quvchida barqaror o‘zini boshqarish ko‘nikmasini shakllantirish uchun yetarli emas. Qisqa kundalik refleksiya, haftalik maqsadlarni ko‘rib chiqish va davriy portfolio tahlili tarbiyaviy faoliyatning uzviyligini ta’minlaydi. Pedagogning qayta aloqasi o‘quvchining shaxsiga baho berishdan ko‘ra, kuzatilgan harakat, erishilgan natija va keyingi rivojlanish qadamiga qaratilishi zarur.

Shuningdek, oila va maktab hamkorligi o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatining kundalik hayotda davom etishiga yordam beradi. Ota-onalar o‘quvchining shaxsiy kundaligini nazorat qilish yoki har bir harakatini tekshirish bilan cheklanmasdan, uning maqsad qo‘yishi, reja tuzishi va natijalarini tahlil qilishi uchun qulay sharoit yaratishi lozim. Maktab, oila va boshqa tarbiyaviy muhitlar o‘rtasida bolaning sha’ni, mustaqilligi, xavfsizligi va mas’uliyatiga doir umumiy yondashuvning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Raqamli kontentlarni baholashda ham kompleks yondashuv zarur. O‘quvchining o‘zini baholashi pedagog kuzatuvi, faoliyat mahsulotlari, vaziyatli topshiriqlar va portfolio materiallari bilan birgalikda tahlil qilinishi mumkin. Bunda baholashning asosiy mezoni o‘quvchining boshqa tengdoshlariga nisbatan mavqei emas, balki o‘zining boshlang‘ich holatiga nisbatan rivojlanishidir. Ushbu yondashuv o‘quvchining o‘z imkoniyatlarini real anglashiga, xatolaridan xulosa chiqarishiga va shaxsiy rivojlanish strategiyasini takomillashtirishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan

raqamli kontentlarni amaliyotga joriy etish o‘zaro bog‘langan pedagogik vazifalarni hal qilishni talab etadi.

Xulosa. O‘quvchilarning o‘zligini anglashi va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini tashkil etishda raqamli kontentlardan foydalanish pedagogik jarayonning izchilligi, muntazamligi va individuallashuvini ta’minlash imkoniyatiga ega. Biroq raqamli vositalarning samaradorligi ularning yangiligi yoki texnologik murakkabligi bilan emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanish ehtiyojlariga qanchalik mosligi va aniq pedagogik vazifalarni bajarishi bilan belgilanadi. O‘zini diagnostika qilish, maqsad qo‘yish, rejalashtirish, amaliy faoliyat, monitoring, refleksiya va korreksiyani birlashtiruvchi siklik mexanizm raqamli kontentlarni ishlab chiqish va joriy etish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mexanizmni pedagogik shakl, metod va vositalar integratsiyasi orqali amalga oshirish o‘quvchining o‘z faoliyatini kuzatish, natijalarini tahlil qilish va zarur tuzatishlar kiritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Raqamli kontentlarni amaliyotga joriy etishda yosh va individual xususiyatlarga moslik, psixologik xavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, muntazam qayta aloqa hamda maktab-oila hamkorligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Natijada raqamli pedagogik vositalar tashqi nazoratni kuchaytiruvchi vosita bo‘lib qolmasdan, o‘quvchining mustaqil fikrlashi, mas’uliyatli tanlov qilishi va o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini ongli boshqarishiga xizmat qiladigan resursga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
2. Mavlonova R., To‘rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. - Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
3. Bandura, A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986.
4. Hattie, J., Timperley, H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. - 2007. - Vol. 77, No. 1. - P. 81–112.